ZAMONAVIY GARMONIYA

GULNORA ABDIKAYUMOVA

O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODIYOTIDA FAKTURA

Читальный зал

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

GULNORA ABDIKAYUMOVA

ZAMONAVIY GARMONIYA

O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura

Oliy ta’lim muassasalari uchun
o‘quv-uslubiy qo‘llanma

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2015

173826

85.315.3
A 15

Abdikayumova, Gulnora
Zamonaviy garmoniya (O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura): o‘quv-uslubiy qo‘llanma /G.Abdikayumova. – Toshkent: «Musiqa», 2015. 68 b.

KBK 85.315.3ya7

UO‘K: 785.121.(075)

O‘quv-uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

«Zamonaviy garmoniya» loyihasining rahbari va mas’ul muharrir: **O.N.Azimova,** *san’atshunoslik fanlari doktori, professor*

Mas’ul muharrir: **H.H.Do‘smatov**

Taqrizchilar: **A.Mansurov,** *O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professor;*
I.I.Krasutskaya, *san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent*

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada O‘zbekiston kompozitorlarining fortepiano hamda orkestr uchun yozilgan asarlaridagi fakturaning badiiy salohiyati va o‘ziga xos funksiyalarini namoyon etishga qo‘l urilgan bo‘lib, kompozitorlarning eng namunali asarlari tahlil etilgan. Qo‘llanma maxsus oliy ta`lim muassasalarining magistratura bosqichi talabalariga, shuningdek, zamonaviy musiqaning nazariy masalalari bilan qiziquvchi keng doiradagi kitobxonlarga mo`ljallangan.

В данной работе впервые предпринимается попытка определить специфические функции и художественный потенциал фактуры в широком музыкальном контексте фортепианных и оркестровых произведений композиторов Узбекистана. Это учебно-методическое пособие предназначается для студентов, обучающихся в магистратуре высших учебных заведений искусства и культуры, а также, для широкого круга читателей, интересующихся современной музыкой.

ISBN 978-9943-307-93-3

© «Musiqa» nashriyoti, 2015
© G.Abdikayumova, 2015

KIRISH

«Musiqiy faktura – badiiy yaxlitlikning juda boy va nisbatan kam o‘rganilgan tomoni bo‘lib, musiqiy nutqni tashkil qiluvchi boshqa tizimlar bilan bir qatorda ko‘ptarmoqli va murakkab tizim hisoblanadi.»[1]

Hozirgi kunga qadar musiqiy fakturaning yagona tushunchasi va ta`rifi mavjud emas. Turli musiqashunoslik ishlarida "faktura" tushunchasining ta`rifi berilgan bo‘lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, L.A.Mazelning «Строение музыкальных произведений» kitobida berilishicha: «musiqiy asar yoki asardan keltirilgan parchaning fakturasi deganda, undagi ovozlar (ovozlar guruhlari) xarakteri, o‘zaro munosabatlari va musiqadagi funksiyalari tushuniladi.»[2]

«Faktura – bu musiqiy material bayonining ma`lum bir shakli bo‘lib, musiqiy material rivojlanishining jarayoni emas, balki o‘zaro aloqadagi ifoda vositalarining yaxlit birlikdagi munosabatlari ko‘rib chiqiladigan doiradir.»[3]

«Faktura» tushunchasining mohiyatini chet el (ayniqsa ingliz) musiqashunosligida qo‘llaniladigan «tekstura» («texture» – «to‘qilgan») atamasi to‘laqonli ochib beradi. Bunda musiqiy negizning fazoviy tabiati bilan bir qatorda, uning funksional jihatlari ham aks etadi.

Yuqorida berilgan ta`riflarga qo‘shimcha sifatida D.I.Shulginning «Современные черты композиции Виктора Екимовского» kitobida keltirilgan quyidagi tavsif muhim ahamiyatga egadir:

«Faktura – bugungi kunda musiqiy to‘qimani tashkil qiluvchi turli elementlarning yig‘indisi, tarkibi va ularning bir vaqtda yoki ketma-ket rivojlanadigan munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularga: nisbatan mustaqil melodik va linear ovozlar, sonor qatlamlarning hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi tonlar, garmonik intervallar, ohangdoshliklar, sonorlar, turli ritmik, dinamik va artikulyatsion konstruktiv birliklar kiradi.»[4]

So‘nggi tadqiqotlarda, fakturaning ta`rif va tavsifida quyidagi yangicha xususiyatlar namoyon bo‘lmoqda: «musiqiy to‘qima tovush massasining umumiy qiyofasi va hajmi» (masalan, «kuchayib boruvchi tovushlar oqimi» va «pasayib boruvchi tovushlar oqimi»), ushbu massaning «og‘irligi» (masalan, «og‘ir», «salmoqli», «zich», «quyuq», «ixcham» va h.k. fakturalar), ovoz aloqalarining tabiati («linear», «gammasimon», «kuychan» faktura) va alohida ovozlarning munosabatlari («ovozosti», «geterofon», «imitatsion», «kontrast-polifonik», «gomofon» va «sonor» faktura), cholg‘u tarkibi («orkestrli», «xor»,

---

[1] **Скребкова-Филатова М.С.** Фактура в музыке. М., 1985. 4-б .

[2] **Мазель Л.А.** Строение музыкальных произведений. М., 1986. 129-б .

[3] **Тюлин Ю.Н.** Учение о музыкальной фактуре и мелодической фигурации. М., 1976. 324-б.

[4] **Шульгин Д.И.** Современные черты композиции Виктора Екимовского. М., 2003.

«kvartetli» faktura). Shuningdek, ma'lum bir janrlarga xos faktura haqida ham so'z yuritilmoqda («yurish marsh fakturasi», «vals fakturasi» va h. k.).[5]

Berilgan barcha ta'rif va tavsiflar ushbu hodisaning naqadar murakkab va o'ziga xosligidan dalolat beradi. Musiqiy **fakturani** tadqiq etishda uning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni asosiy uchta **o'lchamlari** – *gorizontal, vertikal va chuqurlik* jihatlarini ta'riflash juda muhimdir.

Gorizontal – fakturaning barcha elementlarini rivojlanishi uchun zarur bo'lgan vaqt bo'lib, tovush oqimining qismlarga – ohangdoshliklar, akkordlarga bo'linishini ta'minlaydi;

Vertikal – alohida ton, interval, akkord, ohangdoshlik va ovozlarning differensiatsiyasi (ya'ni lad tomonidan mantiqan darajalanmagan tonlarning yig'indisi) va balandlik-registr jihatidan joylashuvi;

Chuqurlik – fazoviy xususiyatlarni mavzuiy, dinamik va boshqa ma'nodagi turli qatlamlarga bo'linishi. Chuqurlik jihatidan oldingi (yaqin, birinchi, relyefli), o'rta va orqadagi (fon, uzoqlashgan) qatlamlarga bo'linadi. Faktura har xil usullar bilan ajratib ko'rsatiladi: ya'ni relyef va fon birgalikda (masalan, kuy va gomofon tizimda bayon etilgan jo'rovozlik) yoki birin-ketin (imitatsiya, aks-sado, uzoqlashish va yaqinlashish effektlari) berilishi mumkin. Fakturaning ushbu o'lchami balandlik vositalariga (yaqin – balandroq, uzoq – pastroq) asoslanadi.

Fakturaning **ifoda vositalari** eshituvchilarda ma'lum tasavvurlarni hosil qilish xususiyatlariga ega. Ular turli hodisa, tuyg'ular, ekspressiyani vujudga keltirishi hamda musiqani aniq, tushunarli, «maroqli», «zavqli», qiziqarli qilib ifodalashi mumkin. Shu bilan birga, fakturaning ifoda vositalari **shakl hosil qilish**da ham ishtirok etib, asosan, ikkinchi darajali, ba'zida esa yetakchi ahamiyatga ega bo'lishi ham mumkin. Ular shaklda kontrast hosil qilish funksiyasini bajaradi.

Fakturaning shakllanishida **tembr** katta ahamiyat kasb etadi. Tovushning barchasi muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish tembr, ohangdoshliklarning registrda joylashuviga bog'liq: quyi registrda – zichlik, quyuqlik; yuqori registrda – tembr jihatidan bo'shliq, shaffoflik, yorug'lik seziladi; ohangdoshliklarning bir registrdan boshqa registrga o'tishi, tovushlar sonining ko'payishi yoki kamayishi. Bularning barchasi bo'yoqdor-tembr va fakturali (relyef va fon) xususiyatlarni idrok qilishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunga qadar musiqashunoslik adabiyotlarida «orkestr fakturasi» tushunchasi ko'p uchrasa-da, uning aniq ilmiy ta'rifi mavjud emas. Shuningdek, uning turlari tasnifoti ham mukammal tarzda ishlab chiqilmagan.

I.A.Barsova so'nggi yuz yilliklardagi simfonik orkestrning shakllanish davrini o'rganib, musiqiy to'qimaning orkestr fakturasini tashkil etuvchi uchta (tembr, zichlik va ovozlarning fazoviy joylashuvi) komponentlarning yig'indisi sifatida ko'rib chiqadi.

---

[5] Кюрегян Т.С. Музыкально-энциклопедический словарь. М., 1990. 569 б.

Ba'zi bir ilmiy manbalarda berilishicha orkestr fakturasi quyidagi holatlar bilan ajralib turadi:

- ma'lum bir musiqiy tizimni (monodik, gomofon-garmonik, polifonik, geterofon) hosil qiluvchi ovozlarning o'zaro munosabati;
- orkestr ovozlarining balandlik jihatidan joylashishi, ya'ni ularning registrlar bo'yicha bo'linishi;
- musiqiy to'qima ma'lum bir ovozlarining tembri;
- ovozlarning zichligi, ya'ni o'sha ovozni ifodaluvchi cholg'ular soni va ularning turli intervallarga dublirovka qilinishi;
- ovozlarning fazoviy joylashuvi.

Shunday qilib, fakturaning kuchli ifodaviy imkoniyatlari, uning musiqiy fazoviy tabiati, o'ziga xos iyerarxik tuzilishi, ko'povozlikning turli yashirin shakllari, fakturaning kompozitsion va obrazli-ma'noviy jarayonlarda ishtiroki va boshqa xususiyatlar O'zbekiston kompozitorlarining fortepiano hamda orkestr uchun yozilgan asarlarida ushbu hodisani tadqiq qilishga qiziqish uyg'otib, bu o'quv qo'llanmaning yaratilishiga turtki bo'ldi.

Ma'lumki, Yevropa musiqasining asosiy tizimlari quyidagi tarixiy davrlarni bosib o'tgan: monodiyadan – polifoniyaga, polifoniyadan – gomofoniyaga va XX asr musiqasida gomofon-polifonik tizimning o'rnatilishi. Gomofon-polifonik bayon turi yangicha fakturali usullarning shakllanishi bilan bog'liq, ya'ni qatlamlar polifoniyasi, puantilizm, diagonal, ko'povozlilik.

O'zbekiston kompozitorlari ko'povozlikni o'zlashtirishning dastlabki bosqichlarida ikkita bayon turiga asoslanishgan – garmoniya va polifoniya. Keyinchalik, monodik materialni ko'povozlikda talqin qilish usullarini izlash yo'llari zamonaviy faktura vositalarning doirasi kengayishiga olib keldi.

I BOB
FAKTURA SHAKLLANISHIDA ORGAN PUNKTI VA OSTINATONING AHAMIYATI

Organ punkti va ostinato – O'zbekiston kompozitorlari ijodida juda keng qo'llaniluvchi va musiqiy matoning murakkablashuvidagi eng birlamchi vositalardan biridir. Mazkur ifoda vositalarining ahamiyati so'nggi o'n yilliklar davomida o'sib bordi. Chunki, organ punkti va ostinato musiqadagi tembr jabhasiga oid kontrastlilikni ta'kidlovchi va unga hajm beruvchi eng ko'p ta'sir qiladigan vositalardir.

Organ punktining mohiyati – davomiy tarzda ushlab turiluvchi tovushning ladotonal funksiyasini kuchaytirish va ta'kidlashdir. Buning natijasida tinglovchining diqqat e'tibori davomiy ushlab turiluvchi muayyan tonning yangrashiga qaratiladi va aynan ushbu jihat organ punktining zaruriyligini ham ta'minlaydi.

Organ punkti bir qancha belgi va xususiyatlar asosida quyidagi turlarga bo'linadi:

1) pedal funksiyasiga ko'ra – tonikali, dominantali;
2) joylashuviga ko'ra – bas, soprano yoki o'rta ovozlarda;
3) ovozlar soniniga ko'ra – bir, ikki, uch ovozli va hokazo;
4) fakturaning qo'llash uslubiga ko'ra – davomli (cho'zilgan) tovush va figuratsiyalangan tovushlar (ostinato);
5) shaklda bajaradigan funksiyasi va joylashuviga ko'ra – boshlang'ich, prediktli, o'rta va kodali.

Organ punkti O'zbekiston kompozitorlarining ijodida keng tarqalgan uslub bo'lib, fakturaning muhim jihatlaridan biridir. Kompozitorlar o'zlarining asarlarida organ punktining har xil ko'rinishlaridan turli maqsadlarda foydalanishgan. Bu kabi organ punktlari asarlarning bosh, o'rta va yakuniy qismlarida shakl hosil qilish hamda uyg'unlashtirish ahamiyatiga ega bo'ladi.

Organ punktlarining rivojlanish va o'zgarishi davomida ularning qo'llanish shakllari almashib borsa ham, asosiy mazmuni va turlari avvalgidek qoladi.

O'zbekiston kompozitorlarining ijodida **tonika** organ punkti ko'pincha asarning ekspozitsiyasida yoki yakunlovchi qismlarida qo'llaniladi. Chunki shaklning, ayniqsa, bu qismlarida tonal markazning o'rnatilishi, barcha keskinlik va noturg'unliklarning asosiy turg'unlikka yechilishini taqazo etadi.

Tonikada asoslangan pedalning shakl hosil qiluvchi roli, ayniqsa, muhimdir. Negaki O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy asarlarida funksional rivojlanishning mantig'i modal ladlarga tayanish hamda vertikalning notersiyaviy tuzilishi tufayli, ko'p hollarda juda ham sustlashuviga olib keladi.

Masalan, tonika organ punkti D.Omonullayevaning «Bibixonim xarobalari oldida» nomli fortepiano asaridagi ekspozitsiya qismining tonal strukturasini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Uning fonida kvartali ohangdoshliklar parallel


tarzda rivojlanib, yuqori qatlamda asta-sekin parallel sekstakkord va septakkordlar bilan almashadi:



X.Azimovning «Xotira» nomli pyesasidagi kvintali organ punkti diqqatga sazovor. Bu yerda to‘rtta qatlam hosil bo‘ladi:


1) basdagi tonika organ punkti harakatning negizi sifatida xizmat qiladi;
2) o‘rta qatlamda esa dominanta pedali unga jo‘r bo‘ladi;
3) «sol» notasidagi ostinato yuqoridagi organ punktlarni to‘ldirib boradi.
4) va mazkur uchta qatlam fonida yuqori registrdagi kuy shakllanadi:






H.Rahimov «Prelyudiya»sining yakunlovchi qismida reprizaning oktavali tonika organ punktiga tayanishi butun pyesaning tonal tuzilishiga ta'sir qilgan:





Ikkita fortepiano cholg'usi uchun yozilgan D.Yanov-Yanovskiyning «Six lost Chopin waltezes» №4 asaridagi organ punkti ham ahamiyatlidir. Ikkinchi partiyada tonika organ punkti uchtovushlik bilan birga pastki registrdagi «*do*» tovushini davomiy tarzda ushlab turilishi evaziga hosil bo'lgan. Ular asosida birinchi partiyaning xromatik ko'rinishdagi melodik harakati rivojlanadi:






Tonika organ punkti asar davomida har xil ko'rinishlarda uchraydi. U mustahkamlovchi omil bo'lib, asarning yaxlitligini ta'minlashda muhim konstruktiv elementdir. Masalan, R.Abdullayev «Prelyudiya»sida muhim shakl hosil qiluvchi omil – yuqori tovushda joylashgan tonika – «si» tovushi ostinato sifatida qo'llanilib, butun prelyudiya davomida ikki va uch hissali ritmik shaklning almashinuviga asoslangandir. U pastki ovozda erkin rivojlanuvchi kuy uchun funksional jihatdan oydinlikning tashkil qilinishiga yordam beradi:



Dominanta organ punkti tonika organ punktiga nisbatan kam qo'llaniladi. Odatda asar o'rtasida yoki katta kompozitsiyalarda predikt sifatida ishlatiladi. U kuchli taranglikni jamlashtirishga sababchi bo'lib, yangi bo'limning boshlanishini tayyorlaydi. Shu qatorda, reprizaning rivojlanishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Dominanta organ punktiga misol sifatida A.Berlinning «Sonata»sini keltirish mumkin. Bu asarda yuqori registrdagi dominanta tovushlari garmonik figuratsiya ko'rinishida ifodalangan. Chap qo'l partiyasida rivojlangan kuy esa III pog'ona uchtovushligiga tayangani tufayli paydo bo'lgan polifunksionallik dominanta organ punktining tabiiy xususiyatini «yumshatadi»:



Dominantali organ punktlar istisno tariqasida ekspozitsiyalarda ham uchrashi mumkin. Masalan, D.Yanov-Yanovskiyning «Six lost Chopin waltzes» №2 pyesasida dominanta tovushidagi organ punkti asta-sekin tersiyaga ikkilanadi, keyin uchtovushlikka va septakkord ko'rinishigacha (ikkinchi fortepiano partiyasida) o'sib boradi. Birinchi partiyada esa mavzu shakllanadi. (Nota misolini ilovadan ko'ring).

Zamonaviy asarlarda tonikaning o'rniga istalgan tovush yoki ohangdoshlikning qo'llanilishi kuzatiladi. N.G'iyosovning «Variatsiya shaklidagi sonata» asariga oid VIII variatsiyada bas organ punkti «sol#» tovushiga tayanib, pastlovchi sekundali intonatsiyalarga jo'r bo'lishi natijasida tovushlarning o'zaro aloqalarida rang-baranglik yuzaga kelgan:



O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan ushlanib turuvchi va takrorlanuvchi organ punktlari qatorida uning turli xil ko‘rinishlaridan ham keng foydalaniladi. Unda organ punkti melodik, ritmik yoki garmonik jihatdan boyitilib, ostinato shakliga keltiriladi.

«Ostinato» so‘zining tarjimasi «matonatli» degan ma’noni bildiradi. Bu sifat musiqa rivojlanishiga dinamika baxsh etib, emotsional quvvatini namoyish qilishiga olib keladi. Ta’kidlash joizki, ostinato XX asr musiqasining kashfiyoti emas. Muttasil tarzdagi takror – umuman musiqa tilining shakllanishida dastlabki va kuchli vositalardan biridir.

I.Stravinskiy mazkur uslub bilan bog‘lik bo‘lgan quyidagi fikrni bildiradi: «Ostinatoning strukturali funksiyasiga e’tiborning kuchayishi bu uslubning murakkablashuvi hamda erkin qo‘llanilishiga moyillikni tug‘diradi».[6]

Ostinatoning asosiy turlari quyidagicha:


1) ifodaviy ostinato – dinamik va koloristik;
2) strukturaviy ostinato – shakl va fakturani hosil qiluvchi.

O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarida ostinato musiqa jarayonini tashkil qilishga yordam beradi va ravshanlashtiruvchi funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, u kuchli ifodali imkoniyatlarga ega bo‘lib, turli xil rejadagi obrazlarni yaratadi.


X.Azimovning «Intilish» pyesasidagi tonika organ punkti kvarta-kvintali ohangdoshlikning garmonik figuratsiyasi asosida hosil bo‘lib, u asar ekspozitsiyasi negizini tashkil etadi:

---

[6] **Левандо М.** Об остинатности в музыке XX века.// Анализ, концепции, критика. Л., 1975, 78-б.



H.Rahimovning «Tungi qo'shiq» asaridagi o'ng qo'l partiyasida joylashgan ostinatoli melodik figuratsiya chap qo'l partiyasida ravon rivojlanuvchi kuyga o'ziga xos tus beradi:



Garmonik yoki melodik figuratsiya ko'rinishidagi tonikada asoslangan ostinato ijrochining qaysidir texnik imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida G.Mushelning etyudlarida ko'pincha qo'llaniladi. (Fortepiano uchun «Sakkiz etyud» qo'llanmasiga qarang: № 5 Etyud hamda № 6 (3-qism – repriza).

R.Abdullayevning «Zumlak» pyesasida organ punkti basdagi «do-sol» glissandosidan tashkil topgan. U yuqori registrdagi mavzu bilan tembr kontrasti asosida «dialog» effektini hosil qiladi:



N.G‘iyosovning «Variatsiya shaklidagi sonata»ning XX variatsiyasida septakkord ko‘rinishidagi ostinato ishlatilgan. U variatsiyalar davomida mavzuga koloritli tus berib, tonal markazini hosil qiladi:



O‘xshash rol bajaruvchi organ punktlari quyidagilarda kuzatiladi:
III variatsiyada – ostinato kvartsekstakkord asosligida hosil bo‘lgan;

XII variatsiyada – pastki ovozda melodik-garmonik ostinatoli figuratsiya qo'llangan. (Nota misolini ilovadan ko'ring).

Fakturaning ifodaviy imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida, kompozitorlar ko'pincha organ punktining rolini bajaruvchi va shaklning avji yoki yakunlovchi qismida koloristik dog' sifatida kiritiluvchi sekundalarda asoslangan ohangdoshliklarni qo'llashga urinishadi. Ular tinglovchining e'tiborini jalb qiluvchi qo'shimcha konstruktiv element sifatida ta'sir qiladi.

Masalan, M.Bafoyevning «Kosmos sirlari» («Muhammad payg'ambar» alayhissalom) pyesasida basdagi organ punkti – bu fakturaning uchta ravshan tasvirlanuvchi qatlamini shakllantiruvchi glissandoli ketma-ketliklar va sekundali ohangdoshliklar fonida eshitiluvchi beshovozli pedal-klasterning qo'shilishidir:



Pedal-klasterli (pedal-sonorli) organ punktiga o‘xshash misol N.G‘iyosovning «Variatsiya shaklidagi sonata» nomli asarining XIX variatsiyasi oxirida ham mavjud. Bu yerda uch qatorli nota yozuvi qo‘llanilgan va yorqin kontrastli faktura tasvirlangan: pastki qatlamda klasterda asoslangan organ punkti, yuqori qatlamda esa dissonans ohangdoshliklarning passajli harakati:



Metro-ritmik o‘zgaruvchanlik sharoitida, funksional jihatdan oydinlik kiritadigan organ punkti VII va XI variatsiyalarda kuzatiladi. (Ilovaga qarang).

O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarida organ punkti va turli xil ko‘rinishlardagi ostinato fakturani hosil qiluvchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. U shakllantirish va koloristik funksiyalarni bajarib, musiqaning ifodaviy xususiyatlarini kengaytiradi va boyitadi.

II BOB
FORTEPIANO VA ORKESTR FAKTURASIDA MILLIY IJROCHILIK USULLARINING AKS ETTIRILISHI

O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarida dastlab Yevropa musiqasi fakturasidan foydalanish, milliy ijrochilikni Yevropa fakturasi usullari bilan boyitish kuzatilgan. Sharq va G‘arb an’analarining musiqa jabhasidagi uyg‘unlashuvi ifodaviylik rivojlanishiga kuchli turtki bo‘ldi. Jumladan, fortepiano va orkestr fakturasi tovush palitrasining boyishi va rivojlanishiga olib keldi.

Bu sohadagi izlanishlar kompozitorlar oldiga turli tartibdagi bir qancha vazifalarni qo‘ydi va ijodkorlar rejadan kelib chiqqan holda ana shu vazifalarni mustaqil, yakka tartibda hal qilishdi. Asosiy maqsad – ko‘povozlilikning tartib-qoidalariga zamonaviy faktura vositalari kompleksini aralashtirish jarayonida milliy koloritni saqlab qolish bo‘lgan. Shu bilan birga, ko‘povozlik fakturada milliy alomatlarning sozlanishi va ularning saqlanishiga ko‘maklashuvchi eng ma’qul usullarni izlash natijasida O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan xalq cholg‘ulari tembrlari imitatsiyasining har xil turlari hamda ularning ijrochilik usullaridan o‘zlarining fortepiano va orkestr uchun asarlarida foydalanish joriy qilindi.

O‘zbekiston kompozitorlari ijodida faktura tuzilishida milliy ijrochilik usullarining ta’siri haqida birinchi bo‘lib S.A.Zakrjevskayaning «Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении»[7] kitobida qayd etilgan.

Bu jarayonda respublikaning deyarli barcha kompozitorlari o‘zlarining uslubiy va milliy orientatsiyalariga qaramasdan faol qatnashmoqdalar. U yoki bu ma’noli, fakturaga milliy tus beradigan yo‘llarga e’tibor qaratishda ular mohirlik bilan o‘zlarining asarlarida xalq cholg‘ulari imitatsiyasining har xil turlarini boshqa uslubiy yo‘llar bilan birlashtirishdi.

Eng ko‘p tarqalgan fakturaviy usullardan biri – bu organ punktining ritmizatsiyasi – O‘zbekistonda uning turlanishining hammaga ma’qul shaklidir. Vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan ritmik formulalar to‘ppa-to‘g‘ri doiraning ostinatoli ritmik tasviri nomli usul timsolini tasdiqlaydi. Doiradan chiqadigan tovush aniq balandlikka ega emas, biroq tovush chiqish o‘rni va uslubidan kelib chiqib, har xil tembrlar bilan bo‘yalgan. Asosiy farq – kaft bilan membrananing o‘rtasiga («bum») va uning chekkasiga («bak») urish orqali paydo bo‘ladi. Birinchi holatda – tovush kuchli, biroq noaniq, ikkinchi holatda kuchli, lekin keskin bo‘ladi. Usulni hosil qilishga urinish va teng balandlikdagi tonlar bilan «bum» va «bak» o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish uchun har xil balandlikdagi

[7] **Закржевская С.А.** «Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении». Т., 1979.

173826

tovushlari navbatma-navbat kuylanadigan organ punktlarini ko'rib chiqish lozim.

O'zbekiston kompozitorlari o'zlarining fortepiano asarlarida usullar variatsiyasining turli yo'llaridan mohirona foydalanishdi.

Shu o'rinda N.Zokirovning To'rtinchi sonatasining ikkinchi qismi (Andante) namuna bo'la oladi. Uning asosida ikki kontrast element yotadi – basda ostinato tarzida takrorlanadigan usul va forshlaglar, o'n oltitalik nota cho'zimli bezaklar bilan boyitilgan kuychan xarakterdagi kuy. Usul ritmoformulasi kuychan ohangning paydo bo'lishini tayyorlaydi va pyesaning tonal markazini aniqlab beradi.

Sonata №4

N.Zokirov




M.Otajonovning «Bedana» nomli pyesasi kirish qismida berilgan usul ritmi butun asar ko'lamidagi konstruktiv element hisoblanadi.

Zarbli cholg'ular usullarining imitatsiyasiga misolni M.Otajonovning skertso xarakteridagi «Qizcha raqsi» nomli pyesasida kuzatish mumkin. Bu yerda punktir ritm usuli asarning boshidan oxirigacha dastlab birovozli rivojlanuvchi kuyni, undan so'ng esa turli ohangdoshliklar va yuqoriga harakatlanuvchi oktavali yurishlarni qo'llab quvvatlaydi.

Xuddi shunday M.Otajonovning «Yetib olchi» pyesasini ko'radigan bo'lsak, usul ritmi polifonik uslubda yozilgan kuy bilan almashinib turadi:





R.Abdullayevning «Zumlak» pyesasida o‘zgaruvchan aksentli, turli registrlarda ko‘chib yurgan, zarbli cholg‘ular sadosi ta’sirini beradigan sekundaviy ohangdoshliklar uchraydi. Asta-sekin tezlashuvchi sur’at, o‘lchov va dinamikaning o‘zgarishi navbatdagi qismga kirishdagi tremololi kuyga olib keladi:


[Allegro]





Faktura zarbli xalq chog'ulari bilan bir qatorda ko'povozlik (ikkiovozlik)ning oddiy shakllari imitatsiyasida, o'zbek musiqasida yaqqol ko'rinadigan dutor, do'mbira, rubob, tanbur, chang, g'ijjak va boshqa cholg'ular vositasida shakllanadi. Ikkiovozlik, parallel kvartalar, kvintalar (kamdan-kam hollarda sekundalar, tersiyalar, sekstalar va b.) torli xalq cholg'ularining tabiiy sozlanishi bilan bog'liq.

A.Nabiyevning «Tanovar» pyesasi dutorning fortepiano fakturasi vositasida sadolanishini amalga oshirishga bo'lgan qiziqishni olib keladi. Bunda o'ziga xos usullar, jumladan, melizmlar bilan bezatilgan melodiyaning harakati, pyesaning tuzilishidagi va metro-ritmik o'ziga xosligidagi aniqlik hamda zarbning shtrix texnikasi xususiyatlarini ta'kidlovchi lentasimon kvintalar bo'ylab harakatini boyitadi:



Dutorga taqlid usulini R.Abdullayevning navbatma-navbat turli registrlarda tovush palitrasini boyitgan parallel kvintalar, ushbu xalq cholg'usi sadosi orqali bevosita uyushmani keltirib chiqargan Rapsodiya №1 («Freski Navruza») asarida kuzatish mumkin.

Do'mbira imitatsiyasini M.Bafoyev o'zining «Amir Temur haqida rivoyat» («Turon») asarida qo'llagan. Bunda muallif izohi («quasi dumbra») bo'yicha bir registrda ikki qatlam rivojlanadi: pastki qatlam – parallel kvintalar; yuqori qatlam – tersiya, kvartaning ikkilantirilishi, bir vaqtning o'zida do'mbira sadosi effektini keltirib chiqarib, tremologa o'xshash yangraydigan o'n oltitalik cho'zimli notalarning almashib turishidan iborat.

Amir Temur haqida rivoyat

M.Bafoyev



M.Bafoyevning «Hofizga bag'ishlov» pyesasida muallif izohlari («quasi in tar» va «quasi tabla») bo'yicha faktura ikki xalq cholg'usi imitatsiyasidan vujudga kelgan: 1) ajratilgan oktavali figuratsiyalar va tor ijrosiga asoslangan

pastlama harakatdagi sekvension motivlar; 2) pedal bilan ushlangan, «sol» dominanta tovushi bilan tasdiqlangan organ punkti, almashib turgan sekundali ohangdoshliklar, o‘ng qo‘l partiyasining o‘ziga xos pulsatsiyalangan punktir ritmda kelishi ochiqchasiga tabla ijrosiga taqlid qiladi.

Hofizga bag‘ishlov


M.Bafoyev





Qashqar rubobi tembrining imitatsiyasini M.Bafoyevning «2-fasl» nomli pyesasida kuzatish mumkin. Bunda pastki qatlam usul ritmi va oktava bo'ylab yuqorilama harakat ko'rinishida, yuqori qatlam esa improvizatsion rivojlangan, triol va melizmatik bezaklar bilan boyitilgan kuy ko'rinishida ifodalangan:





Mualliflarda bir qator xalq cholg'ulari sadolarini aks ettirishga qiziqish yuzaga keldi.


Faktura, xalq cholg'u sozlari imitatsiyasi bo'yicha qizg'in izlanishlar R.Abdullayevning «Rapsodiyalar» №1 («Freski Navruza») asarida ko'rinadi. Bunda pyesaning o'rta qismi (Moderato, Andante) fakturasi rubob ijrosiga taqliddan kelib chiqadi; uning ortidan ikkilantirilgan kvintalar va forshlaglar ketma-ketligi vaqti-vaqti bilan doiraga xos bo'lgan usul ritmoformulasi bilan almashib turgan dutor va rubob ijrosiga taqlid keladi. Keyin rubob ijrosiga taqlid qiluvchi repetitsion melodik ohanglar chang ijrosini eslatuvchi yuqoriga intilgan glissando passajlari bilan nihoyasiga yetadi. Xullas, hosil bo'lgan faktura asarga sof milliy xususiyatlarni beradi.

Dinamik jihatdan baland yangrashga erishish uchun R.Abdullayev o'zining №2 Rapsodiya asarida bir vaqtning o'zida bir qancha musiqa cholg'ulari tembriga taqlid qilishdan foydalandi. Vujudga kelgan tembr qatlamlari turli registrlarda mustaqil ravishda rivojlanib, nihoyatda original fakturani yuzaga keltirdi. Pastki qatlam – tremolo, xalq cholg'ulari ansambliga taqlid qiladi; o'rta qatlam – uzun nota cho'zimlaridan iborat g'ijjak solosi, pastlama harakatdagi sekstollar passaji, chang ijrosiga taqlid (sekundaviy ohangdoshliklar, triolli va melodik popevkalar) bilan bosqichma-bosqich o'rin almashib kelayotgan melodik figuratsiyalar va melizmatik nyuanslar; yuqori qatlam – nay ijrosiga asoslangan, ma'lum vaqtda ko'rinadigan tovushlardan iborat.

№2 Rapsodiya

(o'g'lim Behzodbekka)

R.Abdullayev





M.Bafoyevning «Amir Temur haqida rivoyat»(Turon) asaridagi «quasi Carnay» izohi shu mis damli cholg'uning sadosini eslatadigan bayramona yangrashiga ishora qiladi. Bunda bir-birini chorlab turgan ikki qatlam keyinchalik bir qatlamda birlashadi va kuyning rivojlanishi uchun fon hozirlab beradi.

Amir Temur haqida rivoyat

M.Bafoyev





Karnay imitatsiyasining shunga o‘xshash misolini R.Abdullayevning «Tokkata» asarida kuzatish mumkin. Bunda yuqori notalar va metroritmik jihatdan bir-birini to‘ldirib turgan qatlamlar karnayning bayramona yangrashiga taqlid qiladi.

Tokkata

[Allegro] R.Abdullavev





Ta'kidlash joizki, yuqorida sanab o'tilgan milliy cholg'ular intonatsiyasining faktura usullari bilan bir qatorda, o'zbek kompozitorlari boshqa xalqlar cholg'ulariga ham murojaat qiladilar. Masalan, qo'ng'iroqchalar, zarbli cholg'ular (tuzilish va yangrash jihatidan Yevropa litavrasiga mos tushadigan) va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda, gomofon-garmonik va polifonik fakturalarni o'zbek xalq cholg'u sozlarida ohang va ijroning o'ziga xos xususiyatlari bilan umumlashtirishga intilish kuzatilmoqda. Bunga M.Bafoyevning «Bax Saxarada» nomli pyesasining o'rta qismi yorqin misol bo'la oladi. Bu yerda fonda I.S.Baxning C-dur prelyudiyasi (YaTK) yangrash jihatidan yorqinroq, triolli va sinkopali melodik figuralar bilan boyitilgan, qonun ijrosiga taqlid ko'rinishida keladi.

Simfonik orkestr tembrlarida milliylikni izlash muammolari musiqa san`atini rivojlantirishning barcha davrlarida kompozitorlar uchun eng muhim va murakkab masala bo'lib keldi. Biroq ta'kidlash joizki, musiqaning yorqin ifodaviyligi, uni sharq koloriti bilan bezatish, turli-tuman hamda mukammal holatga keltirish aynan orkestr fakturasi orqali amalga oshirilgan.

Shu o'rinda H.Rahimovning dutor partiyasi yordamida, fleyta ijrosida rivojlanayotgan melodiya fonida torli cholg'ular guruhiga taqlid qilgan doira usulini ko'rsatuvchi «Termalar» nomli asari juda e'tiborlidir:

Termalar

H.Rahimov





Shunga o‘xshash doira taqlidi H.Rahimovning Alt va kamer orkestri uchun konsert asarida kuzatiladi (nota misoli partituraning 43-b.).

Keltirilgan misollarning hammasi milliy koloritning zamonaviy faktura usullari bilan boyitilgan betakror, original namunalardir. Xalq cholg‘ulari imitatsiyasining turli usullari fortepiano hamda orkestr fakturasining boyishi, qotib qolgan an’analarning yangilanishida sezilarli siljish bo‘lishiga olib keldi. Azaldan tafakkur bo‘yicha musiqiy monodik ijod sekin-asta ko‘povozlikni o‘zlashtirish natijasida katta yangiliklarni olib keldi. Monodik tafakkur o‘z yo‘lini ko‘povozlikning oddiy shakllaridan boshlagan bo‘lsa ham, aynan parallel ohangdoshliklarning (ikkiovozlikning «oqsuyak» turlari) fakturaviy ifodasi bilan hamda zamonaviy fakturada turli usullar (organ punktlari, dublirovkalar va b.) ni qo‘llash orqali yangi hayotni olib keldi, kompozitorlik ijodini yangi texnik usullar bilan boyitdi. Turli uslubiy qatlamlar bilan mustaqil ish ko‘rish va bir asar doirasida ularni birlashtirish imkoniyati – bu fortepiano va orkestrlash borasidagi tafakkur avvalgi bosqichlarda rivojlanishi bilan taqqoslaganda ularning hozirgi kundagi yangi sifat darajasi haqida so‘zlash imkoniyatini beruvchi e’tiborga loyiq sifatdir.

Shunday qilib, ko‘povozlikning eng oddiy shakllarini o‘zlashtirishdan boshlangan musiqa ifoda vositalari tizimini boyitish bugungi kunda milliylikni yo‘qotishni anglatmaydi, negaki u haqidagi tasavvur o‘zgaradi va uni quvvatlovchi yangi vositalar shakllanadi.

III BOB
FAKTURANING ZAMONAVIY TURLARI

XX–XXI asr musiqa kompozitsiyasiga oid faktura jabhasiga nazar tashlar ekanmiz, unda musiqiy tilning butun tarixiy-uslubiy tadrijiyoti davomidagi barcha yozuv turlari sintezlashganligini ko'ramiz. Mazkur tarixiy bosqich o'zida boy musiqiy materialni nomoyon etgan bo'lib, unda barqarorlik kasb etgan fakturaviy unsurlar saqlab qolingan, ammo kompozitorlik yozuvining zamonaviy usul va yo'sinlarining ta'siri bois ko'plab o'zgarishlar yuzaga chiqqan. Buning natijasida esa fakturaviy mobillik hosil bo'ladi.

XX asr musiqa kompozitsiyasida fakturaning nota bilan ifodalangan va ifodalanmagan grafikalarining nihoyat darajada ko'pligi, shuningdek, mikroxromatika, fiksatsiyalangan tovush balandlik tizimi, klasterlar, asinxron ritmik qatlamlanishlar, vibratsiya – bularning barchasi musiqiy matoning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirgan holda, uni tubdan o'zgacha tus olishiga va har tomonlama boyishiga sabab bo'ldi.

Sonor fakturaviy shakllar fakturaning sifat jihatidan yangi ko'rsatkichlari yuzaga chiqqanligidan darak berib, bu ko'rsatkichlar musiqiy vosita sifatida ham bo'lishligi, ular interpretatsiyasining cheksiz variantliligini ham namoyon etadi.

Zamonaviy musiqada fakturaning shunday rivojlanish bosqichi yuzaga keldiki, unda faktura ilgarigi o'ziga xosliklaridan hech narsa yo'qotmagan, ammo avval mavjud bo'lmagan hodisalar bilan boyib, jiddiy tarzda o'zgargan. Zamonaviylikning bir davrda shakllangan, tobora rivojlanib boruvchi, yangi burilishlarga yetaklovchi, kelajakning o'ziga xos «renessansi» bo'lgan fenomenlari orasiga ko'pincha aniq uslubiy chegaralarni qo'yish juda qiyin bo'ladi. Bunday rivojiy jarayonlar muttasil tarzda kuchayib bormoqda.

Faktura turlari va uning nisbatan yangi turlari undagi kriteriyalar differensiatsiyasiga, shuningdek, boshqa fakturaviy birliklar va klassifikatsiyalarga muvofiq tarzda asta-sekin ko'payib, boyib bordi. Tadqiqotchi D.I.Shulgin o'zining «Faktura» deya nomlangan maqolasida zamonaviy faktura materialining ikkita yangi va mustaqil tasnifini taqdim etadi. Birinchi tasnifda musiqiy matoning barcha mavjud shakllari iyerarxik jihatdan turlarga, ko'rinishlarga va nisbatan yangi ko'rinishlarga ajratilgan.

Fakturalarning turlari:

Monofonik faktura;
polifonik (imitatsion va kontrast-polifonik) faktura;
geterofon faktura;
sinxron-polifonik faktura;
gomofon faktura;
mohiyatan sonor[8] «nuqta»[9] ko'rinishidagi sonor faktura.

---

[8] «Sonor» –Y.N.Xolopov atamasi.

D.M.Shulgin «**noan'anaviy**» deb belgilagan ikkinchi klassifikatsiyasidagi fakturalar differensiatsiyasining asosiy tamoyili bu – ma'lum bir tovush unsurlari harakati bilan bog'liqlikdagi yetakchi qonuniylikdir. Ya'ni:

Arpedjiosimon faktura;
Tebranuvchi faktura;
Gammasimon faktura;
Diskret (puantilistik) faktura;
«Janrli, obrazli va emotsional fakturalar»;
Ostinatoli faktura;
Pedalli faktura;
«Ko'pirgan» faktura;
Polifaktura;
Sintfaktura (aralash faktura).


D.I.Shulgin klassifikatsiyasida keltirilgan fakturaning ba'zi bir tur va nisbatan yangi turlari O'zbekiston kompozitorlarining fortepiano va orkestr musiqasida o'ziga xos tarzda talqin etilib qo'llaniladi. Tasnifda diskret (puantilistik) fakura deb nomlangan hozirgi yuz yillikka oid faktura turlaridan biri bu **puantilizmdir.**

Puantilizm musiqiy matoning turli xil registrlarda alohida-alohida joylashgan, shuningdek pauzalar va sakrashlar bilan ajratilgan tovush «nuqtalar» (ikki tovush, ba'zida akkord «nuqtalari»)dan tashkil topish tamoyiliga asoslanadi. U musiqiy fazoning kengayishiga imkon yaratadi.

Bu nuqtai nazardan D.Yanov-Yanovskiyning «Kadensiya» asari misol bo'la oladi. Bu yerda fortepianoning keng diapazonini qamrab oluvchi sakkiztalik «sochilmalar» tufayli keng fazoviylik effekti yuzaga chiqadi. Faktura bir vaqtning o'zida ham «nuqtali», ham «ko'lamli» tus oladi.

Kadensiya

D.Yanov-Yanovskiy



[9] **Маклыгин А.** Фактурные формы сонорной музыки // Laudamus. М. 1992. 130-137 б.




S.Kogoutek o‘zining ilmiy asarida puantilizmdagi alohida ton tematizatsiyasi haqida shunday yozadi: «... alohida ton yoki interval dastavval motiv, mavzu, musiqiy jumla vazifasini bajarishni o‘z zimmasiga oladi. Ton... musiqiy fikr va g‘oyani ifodalovchi sifatida bo‘lishi lozim». [10]


N.G‘iyosovning №4 «Naqshlar» asarida alohida ohangdoshliklarning mavzuviy funksiyalarga bo‘linish jarayoni kuzatiladi. Bu yerda fakturaning ikki xil turini sintezlash natijasida qatlamlanish hosil bo‘ladi. Yuqorigi qatlam – ostinato-ritmik formulali motiv (o‘ng qo‘l partiyasi); pastki qatlam esa nuqtalar ko‘rinishida bo‘lib, uni asta-sekin dissonans ohangdoshlik va to‘rt tovushli klastergacha o‘sib boruvchi sonorlar tashkil etadi (chap qo‘l partiyasi). Pyesa ritmik formulali motivning ko‘zgusimon imitatsiyasi bilan yakunlanadi.

№ 4 «Naqshlar»

N.G‘iyosov



[10] **Когоутек Ц.** Техника композиции в музыке XX века. М., 1976. 149, 182-б.




D.Yanov-Yanovskiy «Kadensiya»sida musiqiy fazoda yoyilgan va tobora balandlab boruvchi oqimli pedal fonidagi «sochilmalar» pastlama passajlarga (o‘ng qo‘l partiyasi) va musiqiy balandlikka ega bo‘lmagan tovushlardan iborat ostinatoli garmonik jo‘rnavozlikka o‘tadi (chap qo‘l partiyasi).

Kadensiya

D.Yanov-Yanovskiy.






E.Pakning «Tarafdor va qarshilar» («За и против») pyesasida ko‘ptovushli «akkord–sonor dog‘larning keng registr bo‘ylab ko‘chib yurishi natijasida puantilistikaga yaqin bo‘lgan effekt hosil qilinadi va ular o‘ng qo‘l partiyasida «klasterlar raqsiga» aylanadi.

За и против

E.Pak





O‘zbekiston kompozitorligi musiqiy fakturasiga va musiqa nazariyasiga «diagonal faktura», «diagonal garmoniya», «diagonal tematizm» kabi tushunchalar kirib keldi.

Diagonal faktura vertikal va gorizontal tushunchalariga qo‘shimcha bo‘lib, XX-XXI asrlar musiqiy ifoda vositalarining yaxlit kompleksi bilan bog‘liq. Bunday kompleks tarkibi butunlay yarimtonliklar bilan to‘ldirilgan umumiy xromatika, dodekafon seriya, ohangdosh-klasterlar, musiqiy matoni bezash sifatidagi *crescendo-diminuendo* fakturalardan iborat. Masalan, N.Zokirovning №4 «Ruboiy» asarida diagonal faktura fortepiano partiyasida kvartalarning asta-sekin qo‘shilib borish (kvartaviy o‘sish) yo‘li bilan hosil bo‘lgan. Uning rivojlanishi tonika organ punkti sifatidagi ostinatoli pulsatsiyalanuvchi «lya» tovushi bilan boshlanadi, keyin esa kvartaga ikkilantiriladi, so‘ng kvartalar bo‘yicha joylashgan kiritilgan tonli kvartakkordga aylantiriladi. Ushbu kvartakkord asarning yaxlitligini belgilab beruvchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Uning fonida vokal partiya rivojlanib boradi.

№ 4 Ruboiy

N.Zokirov





F.Yanov-Yanovskiyning «Shoir bandlari» («Поэтические строфы») («Дай, мой друг, звонкий най») kantatasining chap qo'l partiyasida diagonal faktura kuzatilib, u sekundalarning asta-sekin bir-biriga qo'shilib borishidan hosil bo'ladi va natijada besh tovushli diatonik klaster paydo bo'ladi. O'n qo'l partiyasi esa ostinatoli takrorlanuvchi gammasimon figuratsiyaga asoslangan. Bu ikki qatlam yuqori registrda rivojlanuvchi vokal ovoz uchun jo'rnavozlik vazifasini bajaradi.

Poeticheskie strofi


F.Yanov-Yanovskiy



Fakturaning shunga o'xshash turi S.Varelasning «Dutor ovozi» pyesasida ham qo'llanilgan. Bu yerda ikkala qo'l partiyalari ham ko'p sondagi tovushlar bilan asta-kesin ortib (kengaya) borib, avval uch, keyin to'rt, olti va sakkiz tovushli klasterlarni hosil qiladi. Bu akkordli-fakturaviy crescendo kvartkvintakkord ohangdoshligi orqali hosil qilinuvchi kulminatsiyaga olib keladi.

Dutor ovozi

S.Varelas



N.G'iyosovning «Variatsiya shaklidagi sonata» turkumidan XIX variatsiya uch qator nota yo'lida (simfonik partituraga yaqin) bayon etilgan bo'lib, unda ikki qatlamlik aniq seziladi: bir xil tamoyilga asoslangan pastki qatlam – tobora og'irlashib boruvchi «klaster shingillari» natijasida hosil bo'luvchi diagonal tarzda rivojlanib boruvchi yo'l; yuqorigi qatlam – uni hosil qilgan ohangdoshlarning ko'zgusimon simmetriyasiga asoslangan nafis passajli figuratsiyadan iborat. Avval ikkala qatlam ham «dialog» effektini hosil qilgandek tuyuladi, pirovardida ular birga yangraydi.

Variatsiya shaklidagi sonata

N.G'iyosov





Bu nuqtayi nazardan F.Yanov-Yanovskiyning № 3 Simfoniyasi e'tiborlidir. Unda bir ovozli frazadan asta-sekin tarzda yaxlit massiv sifatidagi tembrsonor ohang o'sib chiqadi. Unison skripkalar va violonchellar ijrosi diagonal-strettali yo'l bilan bayon etiladi va u o'n ikki tovushli klastergacha o'sib borib, organ punkti fonida ahamiyatli darajada murakkablashadi.

Simfoniya № 3

F.Yanov-Yanovskiy






Diagonal fakturaning shakllanishi bo‘yicha yana shunga o‘xshash misolni F.Yanov-Yanovskiyning №1 Simfoniyasida ham ko‘rishimiz mumkin. Unda

ovozlarning sekundaviylik asosida kengayib (oshib) borishi evaziga diagonal faktura hosil bo'ladi (28–29-betlar).

M.Tojiyevning №12 Simfoniyasida torlilar guruhi ovozlarning diagonal-strettali imitatsiyasi natijasida yoyilgan holdagi o'n ikki tovushli xromatik kvartakkord shakllanadi. D.I.Shulgin fakturaning bunday turini o'zining klassifikatsiyasida imitatsion monokomponentli (yetakchi ovoz komponentlaridan faqat bittasigina imitatsiyalanadi), ositanatoli-sonor faktura deb ta'riflagan.

Simfoniya № 12

M.Tojiyev



XX asr o'rtalariga kelib, musiqiy matoning o'ziga xos turi – **qatlamlar polifoniyasi**ning qo'llanilishi muntazam ravishda kuzatiladigan bo'ldi.

Qatlamlar polifoniyasiga birinchi ta'rifni V.V.Protopopov bergan: «Qatlamlar polifoniyasi» deganda shunday bir vaqtdagi qo'shilish nazarda tutiladiki, unda melodiyalar o'rnini har biri alohida o'ziga xosliklarga ega bo'lgan yaxlit ko'povozliklar, ko'ptovushli komplekslar ham egallashi

mumkin»[11].

V.Xolopovaning avval iqtibos keltirilgan kitobida «qatlamlar polifoniyasi» tushunchasi «ko'p tovushli fakturaviy qatlamlar kontrapunktlashuvchi ko'povozlikning alohida turi» sifatida talqin etiladi. Bu yerda ham fakturaning mazkur turi ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi:

«Birinchisi – dramaturgik. Ikkinchisi esa «qatlamlar polifoniyasi» – har bir kontrapunktlashuvchi partiya aynan ko'p tovushli kompleks sifatida qabul qilinadigan fakturadir.

Faktura sifatidagi qatlamlar polifoniyasining sistematik qo'llanilish jabhasi XX asr o'rtalaridagi musiqiy matoning alohida turi bo'lib qoldi va «yuksak polifoniya» («сверхмногоголосия») nomini oldi.[12]

Bunga «Qatlamlanuvchi faktura» («qandaydir kontrast-fakturaviy jo'rlik bilan o'ralgan melodiya») ko'rinishidagi polifaktura deb nomlangan faktura turi ham talluqlidir.

R.Abdullayevning «Epitafiya» pyesasida mustaqil rivojlanuvchi qatlamlarni hosil qiluvchi kontrast-polifonik faktura kuzatiladi. Bu yerda kompozitor har biri aniq ajralgan uch qator nota yo'lidan foydalangan. Asarning keltirilgan mazkur parchasida basdagi ostinatoli-pulsatsiyalanuvchi triol figuratsiyalarning registr tomondan uzoq bo'lingan ikki chetdagi kontrast melodiyalarga jo'rlik qilishini kuzatish mumkin.

Epitafiya

(Andante) R.Abdullayev



[11] **Протопопов В.** История полифонии в ее важнейших явлениях. Русская классическая и советская музыка. М., 1962. 66-б.

[12] **Холопова В.Н.** Теория музыки. Фактура. М., 1979. 187-б.



Kontrastli-kontrapunktlashuvchi ikki qatlam borasida N.Zokirovning № 2 Sonatasi ahamiyatlidir. Yuqori qatlamning fakturaviy birliklarini bo'lib, oq klavishli diatonika bo'ylab joylashgan va o'zining rivojiy yo'liga ega bo'lgan septakkordlar tashkil etadi. Pastki qatlam – xromatik tovushqatorga asoslangan melodik figuratsiyadir.

№ 2 Sonata


N.Zokirov




«Всплески чувств, души и мысли» nomli fortepiano turkumidan «22.30» deya kichik sarlavha qo‘yilgan uchinchi miniatyurada pastki qatlam – 11 marta takrorlanuvchi uch tovushli klaster musiqiy bayonning asosini tashkil qiladi. Uning fonida teng va cho‘zilib ushlanib turuvchi takroriy orttirilgan kvartalar o‘rta ovozda yangraydi. Ular ustidan o‘ziga xos aks sadoni eslatuvchi yuqori registrdagi kvart-kvintakkordlar qo‘shiladi. Umumiy ohang cheksiz davom etuvchi vaqt oqimi hissini uyg‘otadi.

Всплески чувств, души и мысли

A.Latif-Zade.







F.Yanov-Yanovskiyning №1 Simfoniyasida qatlam differensiatsiyasi aniq namoyon bo'ladi. Bu yerda olti tovushli klaster fonida damli cholg'ularning sonor ohanggi jo'rligi bilan fortepiano partiyasi improvizatsiya qiladi.

№ 1 Simfoniya

F.Yanov-Yanovskiy





Zamonaviy asarlarni eshitib va uni tadqiq etib, ahamiyatli tarzda o‘z ko‘rinishini o‘zgartirgan O‘zbekiston kompozitorlarining lad tafakkurini aniqlash mumkin emas. Xususan, bunday vositalar majmuyini tarkibiga politonallik ham kirib keldi. Turli xil melodiyalarning kontrapunktlanishidagi umumiy ohang yaxlitligida nafaqat funksional, balki tonal ziddiyat ham mavjud.

Fakturaning politonal qatlamlanishi garmonik vertikal qanday bo‘lsa, gorizontal qatlamlarning ham xuddi shunday konfliktiga olib keladi. Bunda bir qatlam asosiy, qolganlari esa tobe bo‘ladi. Bunga R.Abdullayevning «Tokkata»si misol bo‘la oladi. Unda kompozitor tonika organ punktlarining

bitonal solishtirilishi usulidan foydalangan. Bu bitonal taqqoslanish pyesa oxirigacha davom etadi: o'ng qo'l partiyasi «do-diyez minor» tonalligida, shu bilan bir vaqtda, chap qo'l partiyasi esa «do minor» tonalligida bayon etiladi. Natijada tonikalarning kichik sekunda nisbatidagi konflikti yuzaga chiqadi.

Tokkata

R.Abdullayev

Allegro con fuoco




S.Varelasning «Vals» asarida qisqartirilgan reprizaning boshlang'ich qismi ikki tonallikning taqqoslanishiga asoslangan: $\frac{fa\#\,minor}{lya_minor}$, keyinroq, pyesa o'rta bo'limida tonalliklar almashinuvi kuzatiladi: $\frac{Do_major}{fa\#\,major-minor}$.

Vals

S.Varelas




Ped.
simile
mf
pp
mf



A.Hoshimovning «O‘jar qo‘g‘irchoqlar» («Упрямые игрушки») pyesasida poliladlik musiqiy matoning ikki qatlamga bo‘linishini belgilab beradi. Yuqorigi qatlam do-ioniy, pastki qatlam esa fa#-miksolidiy va do#-doriy ladlarining o‘zgaruvchanligida bayon etiladi.

O‘jar o‘yinchoqlar

A.Hoshimov






D.Saydaminovaning «Ajdodlar ruhi» («Тени предков») pyesasida registr orqali ta'kidlanuvchi tonal kontrast mavjudligi tufayli qatlamlar polifoniyasi yuzaga chiqadi. Pastki (oktavali ikkilantirilish), o'rta (qora klavishlarga asoslangan ohangdoshlik) va yuqorigi (oq klavishlarga asoslangan diatonik klasterlar) qatlamlar ohanggining konflikti kompozitorga asarning kulminatsion qismini yaratishda qo'l kelgan.

Ajdodlar ruhi

D.Saydaminova



Amalga oshirilgan tahliliy ish yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, musiqiy fakturaning zamonaviy holati – musiqiy til tizimining rivojlanish yo'lidagi muhim va murakkab bosqichidir.

Fakturaning ko'rib chiqilgan turlari: puantilizm, diagonal, qatlamlar polifoniyasi, sonoristik effektlar kompozitorlikning bu jabhadagi faol izlanishlaridan darak beradi, pirovardida kompozitorlik madaniyatining sezilarli yuksalishi ko'zga tashlanadi.

Xususan, R.Abdullayev, M.Bafoyev, N.Zokirov, N.G'iyosov, D.Yanov-Yanovskiy, F.Yanov-Yanovskiy, D.Saydaminova, E.Pak, A.Hoshimov, M.Tojiyev, H.Rahimov singari kompozitorlarning faktura va uning yangi turlari borasidagi izlanishlari juda ham ahamiyatlidir. Ular zamonaviy fakturaning yangidan yangi badiiy imkoniyatlarini, juda ko'p sonli va turli xil funksiyalarga ega ekanligini o'z asarlari orqali namoyon etmoqdalar. Bu yutuqlarning barchasi aynan musiqiy matoning yangi bayon etish yo'sinlari bilan bog'liq holda yuz berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Азимова О.Н., Ибрагимова Ш.Э. Замонавий гармония. (Ўзбекистон композиторлари ижодида аккордлар таркиби). Т., 2008.
2. Габитова А. Минимализм в музыке (генезис, эволюция, выразительные возможности).Т.,2007.
3. Глядешкина З.И. Хрестоматия по гармоническому анализу на материале музыки советских композиторов. М., 1984.
4. Гуляницкая Н. Введение в современную гармонию. М., 1984.
5. Гумаров М.В. Вопросы исполнительской интерпретации современных фортепианных сочинений композиторов Узбекистана. Т., 2007.
6. Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркмении. Т., 1979.
7. Инструментоведение и инструментовка. (Учебно-методическое пособие для музыкальных колледжей). Т., 2006.
8. История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. М., 1972.
9. История узбекской советской музыки. Том II. Т, 1973.
10. История узбекской советской музыки. Том III. Т, 1991.
11. Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. (Наследие). Т., 1972.
12. Когоутек Ц. Техника композиции в музыке XX века. М., 1976.
13. Красникова Т.Н. Музыкальная фактура и стиль. Истоки и эволюция. М., 1995.
14. Кюрегян Т.С. Музыкально-энциклопедический словарь. М., 1990.
15. Левандо М. Об остинатности в музыке XX века //Анализ, концепции, критика. Л., 1975.
16. Мазель Л.А. Строение музыкальных произведений. М., 1986.
17. Маклыгин А. Фактурные формы сонорной музыки //Laudamus. М., 1992.
18. Мухтарова Ф.Ш. О роли опыта в формировании навыков восприятия полифонической фактуры узбекским слушателем //Теоретические проблемы узбекской музыки. (Сборник научных трудов) № 526, Т., 1976.
19. Мухтарова Ф.Ш. Остинатность в узбекской народной и профессиональной музыке устной традиции и ее претворение на бассо-остинато в творчестве композиторов Узбекистана //Вопросы современного музыкознания. (Вып. 594). Т., 1979.
20. Назайкинский Е.В. О психологии музыкального восприятия. М., 1972.
21. Паисов Ю. Политональность в творчестве советских и зарубежных композиторов XX в. М, 1977.

22. Протопопов Вл. История полифонии в ее важнейших явлениях. Русская классическая и советская музыка. М., 1962.
23. Рахимов Х. Чтение партитур. (Учебное пособие). Т., 2002.
24. Рети Р. Тональность в современной музыке. Л., 1968.
25. Скребкова-Филатова М.С. Фактура в музыке. М., 1985.
26. Тюлин Ю.Н. Учение о музыкальной фактуре и мелодической фигурации. М., 1976.
27. Холопов Ю. Гармония. Теоретический курс. М., 1988.
28. Холопова В. Фактура. М., 1979.
29. Ценова В.С. Теория современной композиции. М., 2005.
30. Шульгин Д.И. Современные черты композиции Виктора Екимовского. М., 2003.

Mustaqil tahlil uchun nota misollari

№1

N.G'iyosov



№2

182 XII var.


Allegro








№3









81
8va
staccato
83
(8)
85
(8)
staccato
8vb
88
(8)
90
8va
(8)
92
(8)


VII var.
95
sf sf
8vb



97
sf sf
8vb


99
8vb
sf sf
sf sf
sf sf
8vb

№4


148 XI var.
Allegretto
pp
sim.
8vb
151
cresc.
(8)


154
157
f
p
160
mf
molto
163
ff
8va
165
fff sf sf sf sf sf sf sf
pp
8vb



168
cresc.
171
mf
f
p
173
mf
p
f
175
p
f
cresc.
177




№ 5

Bedama

M.Otajonov




mp
mf



№ 6

Qizcha raqsi

M.Otajonov




mp
3
mp
f
ff

№ 7

Simfoniya № 1

F.Yanov-Yanovskiy



№ 8

SHARQONA HAZIL

A.Latif-zoda



№ 9

SOUNDING DARKNESS

D.Yanov-Yanovskiy



MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. Faktura shakllanishida organ punkti
va ostinatoning ahamiyati 6

II BOB. Fortepiano va orkestr fakturasida milliy ijrochilik usullarining
aks ettirilishi 17

III BOB. Fakturaning zamonaviy turlari 29

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 50
Ilova 52

GULNORA ABDIKAYUMOVA

ZAMONAVIY GARMONIYA

O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura

Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent, 2015

Noshir *O.Rahimov*
Texnik muharrir *H.Ahmedov*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126. 2008.12-noyabr.

Bosishga ruxsat etildi 02.11.2015. Bichimi 60 x 84 1/8.
Times New Roman garniturasi. Shartli bosma taboq 8,5. Adadi 200 nusxa.

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent, Olmazor ko‘chasi, 1.

«SIVASH» MCHJ da chop etildi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 24.

Nashr Shveytsariya hamkorlik byurosi ko'magida chop etildi

Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development and Cooperation SDC
Швейцарское Управление по Развитию и Сотрудничеству SDC

ISBN 978-9943-307-93-3